

# Tabiiy fanlar 1

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
1-sinfi uchun darslik*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

*Yangi nashr*



Toshkent – 2021

UO'K 502.1(075)

KBK 74.262.0

T 12

***Tuzuvchilar:***

K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, Z. B. Sangirova, M. K. Yuldasheva,  
M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, D. S. Azamatova, M. T. Umaraliyeva,  
U. E. Alimuhamedova, S. G'. Xasanova, D. T. Hasanova, D. Q. Turdiyeva,  
N. V. Yusupova, G. A. Pahramova, Sh. M. Ganiyeva

***Xalqaro ekspert:***

Philippa Gardom Hulme

***Taqrizchilar:***

**K. Saparov** – Nizomiy nomidagi TDPU tabiiy fanlar fakulteti dekani, biologiya fanlari doktori, professor.

**Sh. Sharipov** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU geografiya va tabiiy resurslar fakulteti dekani, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

**U. Xalilov** – O'zR FA ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti yetakchi ilmiy xodimi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc).

**E. Xujanov** – Nizomiy nomidagi TDPU fizika va astronomiya o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**I. Abdurahmonova** – TPTI qoshidagi akademik litseyning oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi.

Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 88 b.

ISBN 978-9943-7114-4-0

UO'K 502.1(075)

KBK 74.262.0

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi  
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi  
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyası  
Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlendi.*

**SHARTLI BELGILAR:**



– savollarga  
javob bering



– kichik tadqiqot



– eslab qoling



– topshiriq

ISBN 978-9943-7114-4-0

© Respublika ta'lif markazi, 2021



# MUNDARIJA



## 1-BOB. ATROFIMIZDAGI OLAM

1-mavzu. Men izlanuvchiman! .....	6
<b>Amaliy mashg'ulot</b>	
2-mavzu. Jonli va jonsiz tabiatni o'rganamiz .....	8
3-mavzu. Tirik organizmlar .....	10



## 2-BOB. O'SIMLIKLER

4-mavzu. O'simliklar o'sishi uchun nimalar zarur?.....	14
5-mavzu. O'simliklarning xilmaxilligi ...	16
<b>Amaliy mashg'ulot</b>	
6-mavzu. O'simliklarning tuzilishi.....	18
<b>Loyiha ishi</b>	
7-mavzu. O'simliklarni ekish va parvarishlash .....	20

## 3-BOB. HAYVONLAR

8-mavzu. Hayvonlarning yashashi uchun nimalar zarur? .....	24
9-mavzu. Hayvonlarning xilmaxilligi .....	26
10-mavzu. Hayvonlarning rivojlanishi.....	28
<b>Amaliy mashg'ulot</b>	
11-mavzu. Hayvonlarning ahamiyatini o'rganamiz .....	30



## 4-BOB. OB-HAVO

12-mavzu. Ob-havo nima? .....	34
<b>Amaliy mashg'ulot</b>	
13-mavzu. Havo haroratini o'lchash ...	36
14-mavzu. Yog'in turlari .....	38

## 5-BOB. YIL FASLLARI

15-mavzu. Kuz.....	42
16-mavzu. Qish .....	44
17-mavzu. Bahor .....	46
18-mavzu. Yoz .....	48

## Amaliy mashg'ulot

19-mavzu. Yil fasllarini farqlash va o'zgarishlarni tasvirlash .....	50
--	----

## 6-BOB. YASHASH JOYI

20-mavzu. O'rmon .....	54
21-mavzu. Cho'l tabiatи .....	56
22-mavzu. Suv havzasi .....	58

## 7-BOB. YER VA KOINOT

23-mavzu. Osmonda nimalarni kuzatish mumkin? .....	62
--	----

## Amaliy mashg'ulot

24-mavzu. Quyosh, Yer va Oyni tasvirlash.....	64
25-mavzu. Kun va tun.....	66



## 8-BOB. ISSIQLIK, YORUG'LIK VA TOVUSH

26-mavzu. Issiqlik nima? .....	70
27-mavzu. Yorug'lik nima?.....	72

## Amaliy mashg'ulot

28-mavzu. Issiqlik va yorug'lik manbalarini farqlash .....	74
29-mavzu. Tovush .....	76

## Amaliy mashg'ulot

30-mavzu. Tovushlarni hosil qilish.....	78
---	----

## 9-BOB. HARAKAT

31-mavzu. Harakat nima? .....	82
-------------------------------	----

## Amaliy mashg'ulot

32-mavzu. Harakat qanday yuzaga keladi?.....	84
33-mavzu. Umumlashtiruvchi dars .....	86





**1-BOB  
ATROFIMIZDAGI OLAM**



1-mavzu

MEN IZLANUVCHIMAN!


Tabiatni qanday o'rganamiz?



Tabiatni o'rganuvchilar – izlanuvchilardir!

Izlanuvchi kuzatadi, o'lchaydi, taqqoslaydi, aniqlaydi va xulosa qiladi.





Tabiatni o'rganishda qaysi sezgi  
a'zolarimizdan foydalananamiz?



## AMALIY MASHG'ULOT

2-mavzu

### JONLI VA JONSIZ TABIATNI O'RGANAMIZ


Jonli va jonsiz tabiatga nimalar kiradi?



## Qush va pufakda qanday o'zgarish sodir bo'ldi?



### Bizga kerak



Qog'oz



Chuvalchang



Tosh



Qisqich



Lupa

### Bajarish tartibi




1 Qisqich yordamida chuvalchangni qog'ozga qo'ying.

2 Lupa yordamida chuvalchangni kuzating.

3 Toshni joyidan siljiting.

Jonsiz jism va tirik organizmlarning  
harakatlanishida qanday farq bor?



9

3-mavzu

TIRIK ORGANIZMLAR

Bolalar nima qilyapti? Rasmdagi qaysi holatlarni to'g'ri deb o'ylaysiz?



O'simlik, hayvon va odamlar tirik organizmlardir.


Ular oziqlanadi, nafas oladi, harakatlanadi, o'sadi va rivojlanadi.

O'simlik va hayvonlarni  
ajrating. Nomlarini ayting.





## 2-BOB O'SIMLIK LAR



## 4-mavzu

### O'SIMLIKALAR O'SISHI UCHUN NIMALAR ZARUR?

Quyosh



Havo



Suv



Tuproq

Makkajo'xori nega yaxshi,  
rivojlanmadi?



Makkajo'xori nega qurib qoldi?



Nima uchun yer yumshatiladi?





5-mavzu

O'SIMLIKLARNING XILMAXILLIGI

O'simliklar qanday guruhlarga bo'linadi?



- Daraxt – bitta yo'g'on yog'och poyali o'simlik.
- Buta – bir nechta yog'och poyali o'simlik.
- O'tlar – yashil poyali o'simlik.



Buta

Daraxt, buta va o'tlarga  
qanday o'simliklar kiradi?



Daraxt


O'tlar

## AMALIY MASHG'ULOT

6-mavzu

O'SIMLIK LARNING TUZILISHI

- Rasmda qaysi o'simliklar tasvirlangan?
- O'simliklar qanday qismlarga bo'linadi?




Pomidorda nechta gul va meva bor?



Pomidordan nimalar tayyorlash mumkin?






Ikkita behi pishib, yerga tushdi.  
Daraxtda nechta behi qoldi?



Behidan nimalar tayyorlanadi?



**STEM** Science & Technology**LOYIHA ISHI****7-mavzu****O'SIMLIK LARNI EKISH VA PARVARISHLASH**G'ovaktosh  
(keramzit)Bog'  
tuprog'iIldiz  
otgan  
o'simlik

Torf



Kurakcha



Gultuvak



Bioo'g'it



Suv idish



1. Tuproq, bioo'g'it, torf aralashtiriladi.



3. Gultuvak yarmigacha tuproq aralashmasi bilan to'ldiriladi.



4. Ildiz otgan o'simlik gultuvakka joylanadi.



5. Gultuvakdagagi o'simlik ildizi tuproq bilan ko'miladi.



2. Gultuvakka  
g'ovaktosh  
solinadi.

7. O'simlikka  
suv quyiladi.

6. O'simlik  
atrofidagi  
tuproq qo'l  
bilan bosiladi.

O'simlikni parvarish qiling va  
rivojlanishini kuzating.





3-BOB  
**HAYVONLAR**

## 8-mavzu

### HAYVONLARNING YASHASHI UCHUN NIMALAR ZARUR?

- Hayvonlar hayotini kuzating.  
Hayvonlar nima qilyapti?
- Hayvonlar o'z ehtiyoji uchun zarur narsalarni qanday topadi?





Hayvonlar tirik organizmlardir. Hayvonlarning yashashi uchun oziq, suv, havo, yashash joyi zarur!


Hayvonlar oziqlanadi, nafas oladi, harakatlanadi, o'sadi, ko'payadi.



9-mavzu

HAYVONLARNING XILMAXILLIGI

Umurtqali hayvonlar



Sutemizuvchilar

- Bolasini sut bilan boqadi.
- Tanasi yung bilan qoplangan.



Qushlar

Tanasi pat bilan qoplangan.




Sudralib yuruvchilar

Tanasi tangachalar bilan qoplangan.




Suvda va quruqlikda yashovchilar

Tanasi shilimshiq teri bilan qoplangan.




Baliqlar

- Suzgichlari yordamida suzadi.
- Tanasi tangachalar bilan qoplangan.




## Umurtqasiz hayvonlar



- Hayvonlar oziqlanishiga ko'ra yirt-qich va o'txo'r bo'ladi.
- Yirtqichlar boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi.
- O'txo'r hayvonlar o'simliklar bilan oziqlanadi.



## Berilgan hayvonlarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?



## 10-mavzu

## HAYVONLARNING RIVOJLANISHI

- Hayvonlar qaysi belgilari bilan onasiga o'xshaydi?
- Hayvonlar qaysi belgilari bilan onasidan farq qiladi?



Ot va toychoq



Tuya va bo'taloq




Qo'y va qo'zichoq




Echki va uloq



Sigir va buzoq



Hayvonlarning rivojlanish jarayonini kuzating.  
Ularda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?



## AMALIY MASHG'ULOT

11-mavzu

### HAYVONLARNING AHAMIYATINI O'RGANAMIZ

Odamlar nima uchun  
hayvonlarni boqishadi?



## Bu mahsulotlar qaysi hayvonlardan olinadi?



Tuxumning sifatini qanday aniqlaymiz?



### Bizga kerak



2 ta tuxum



2 ta stakan



Grafinda suv

### Bajarish tartibi



1 2 ta stakanga yarmigacha suv quying.

2 Suv quyilgan stakanlarga bittadan tuxum soling.

3 Stakanligi tuxumlarning suvdagi joylashuvini kuzating.



Eski tuxum



Yangi tuxum

Eski tuxumni iste'mol qilib bo'lmaydi!







4-БОВ  
ОВ-НАВО

12-mavzu

## OB-HAVO NIMA?



Ob-havoning holatlarini izohlang.

6 : 00



Kun davomida ob-havo  
o'zgarishini kuzating.

Tongda biroz salqin bo'ldi.

10 : 00



Keyin quyosh chiqib,  
tushga yaqin havo isidi.

14 : 00



Tushdan keyin osmonni bulut qopladi va yomg'ir yog'di.

Havoning kun davomida o'zgarishi  
**ob-havo** deyiladi.



- Qaysi rasmda yomg'irli ob-havo tasvirlangan?
- Kunning qaysi vaqtida havo salqin bo'ladi?



### Jadval asosida ob-havo haqida matn tuzing.

Bugun	Bulut	Shamol	Yog'in
Tongda	✗	✓	✗
Ertalab	✓	✓	✗
Tush paytida	✓	✗	✓
Kechga yaqin	✗	✗	✗



Ob-havo tez-tez o'zgarib turadi.



Kechga yaqin  
havo ochildi.

16 : 00

Tunda havo salqin bo'ldi.

22 : 00



**STEM** Science & Mathematics


**AMALIY MASHG'ULOT**

**13-mavzu**

**HAVO HARORATINI O'LCHASH**




Qaysi termometrda havo  
harorati o'lchanadi?



Biz har kuni televizor va internet orqali havo sovuq, iliq yoki issiq bo'lishini bilib olamiz. Bular **havoning haroratidir**.

**Havo termometri**



Havo harorati **termometr** yordamida o'lchanadi.



## Maktab hovlisida

## Sinf xonasida



### Bizga kerak



Havo termometri



Qog'oz



Ruchka

### Bajarish tartibi

- 1 Havo termometri yordamida sinf xonasidagi haroratni o'lchang va natijani qog'ozga yozing.
- 2 Maktab hovlisidagi haroratni o'qituvchingiz yordamida o'lchang va natijani qog'ozga yozing.
- 3 O'lhash natijalarini taqqoslang.

Xona haroratini o'zgartirish mumkinligi, lekin maktab hovlisidagi haroratni o'zgartira olmasligimiz sabablarini tushuntiring.



## 14-mavzu

## YOG'IN TURLARI

Qanday yog'in turlarini bilasiz?



Havo juda sovuq bo'lgan vaqtda **qor** yog'adi.



Bulutlardan tomchi ko'rinishida tushadigan suv **yomg'irdir**.

- Yog'in yog'ishining qanday ijobiy tomonlari bor?
- Yog'nlardan qanday himoyalanamiz?





Yomg'ir, qor, do'l va jala  
yog'in turlari hisoblanadi.

Ko'pincha yomg'ir va jaladan  
so'ng **kamalak** chiqadi.



Yomg'ir yog'ayotgan vaqtda  
havo birdaniga sovib ketsa, **do'l**  
hosil bo'ladi.

Agar yomg'ir shiddat bilan qisqa  
muddat yog'sa, bu – **jala**.





5-BOB  
**YIL FASLLARI**

## 15-mavzu

## KUZ

Kuz faslini qanday tasavvur qilasiz?



Kuz, qish, bahor va yoz –  
yil fasllari.

- Kuzda o'simlik va hayvonlar hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
- Kuzda odamlar qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar?
- Nima uchun bu faslni **oltin kuz** deb ataymiz?



Kuzda daraxt barglari sarg'ayib, to'kiladi.



Sentyabr, oktyabr va  
noyabr **kuz oylaridir.**



Dalalardagi hosil yig'ib olinadi va  
qishga tayyorgarlik ko'rildi. Qushlar  
issiq o'lkalarga uchib ketadi.



## 16-mavzu

## QISH

Qish faslini tasvirlang.

- Qish faslida sodir bo'ladigan tabiat hodisalarini ayting.
- Qishda hayvonlar nima qiladi?
- Qish faslida bolalar qanday o'yinlar o'yнaydilar?



Dekabr, yanvar, fevral  
**qish oylaridir.**



Qish – yilning eng sovuq fasli. Qish faslida havo asosan sovuq va bulutli bo‘ladi, qor yog‘adi. Sovuqda suv yuzasi muzlaydi.



17-mavzu

BAHOR



Bahorda tabiat qanday rangga burkanadi?



- Qaysi o'simliklar bahor darakchilari hisoblanadi?
- Bahor elchilari bo'lgan qushlarni bilasizmi?



Daraxtlar kurtak yoyadi va gullaydi.



Bahor fasliga xos  
o'zgarishlarni ayting.



Bahor kelishi bilan tabiat uyg'onadi.  
Qushlar uchib keladi. Havo isiy boshlaydi.

Dalalarda ish boshlanadi.  
Bahorda "Navro'z" bayrami nishonlanadi.

Mart, aprel va may **bahor**  
**oylaridir.**



## 18-mavzu

## YOZ


Yoz kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?



- Yozda odamlar nimalar bilan shug'ullanishadi?
- Yoz faslida o'simliklarda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?



Iyun, iyul va avgust  
**yoz oylaridir.**






## Yoz fasli bilan bog'liq rasmlarni toping.




Yoz – yilning eng issiq fasli. Bu faslda juda ko‘p mevalar pishadi. Yoz kelishi bilan ta’til boshlanib, bolalar oromgohlarga boradilar.






## AMALIY MASHG'ULOT

19-mavzu

### YIL FASLLARINI FARQLASH VA O'ZGARISHLARNI TASVIRLASH



- Rasmlar qaysi fasllarga tegishli?
- Fasllar bilan bog'liq o'zgarishlarni mashq daftaringizda aks ettiring.





**6-BOB**

**YASHASH JOYI**

O'rmonni qanday tasavvur qilasiz?

O'rmon qalin o't-o'simliklar, butalar va daraxtlardan iborat joydir. O'rmonda hayvonlar, qushlar yashaydi.

O'simliklar qalin o'sganligi sababli o'rmonning ayrim joylariga quyosh nurlari kam tushadi. Bunday joylarning zaxi ortib, botqoqliklar hosil bo'ladi.

- Nega o'rmonlarda o't-o'simliklar qalin o'sadi?
- O'rmonda adashib qolsangiz, nima qilgan bo'lar edingiz?



Rasmdagi hayvonlarning nomlarini ayting va ularni mashq daftaringizga yozib qo'ying.



Yer yuzida o'rmonlar juda kam.  
Ularni asrab-avaylashimiz kerak!



## 21-mavzu

## CHO'L TABIATI



Cho'lni qanday tasavvur qilasiz?

- Nega cho'llarda o'simlik va hayvonlar juda kam bo'ladi?
- Cho'lda qanday o'simliklar o'sadi?



Saksovul

Quyon

Yulg'un

Chayon

Cho'l o'simlik va hayvonlari issiqqa, suvsizlikka moslashgan bo'ladi.

Echkemar

Cho'llarda havo juda issiq, jazirama bo'ladi. Ular katta maydonlarni egallaydi. Cho'lda o'simliklar va hayvonlar juda kam.




Tuya

Cho'lda qurg'oqchilikka moslashgan sudralib yuruvchi va sutemizuvchi hayvonlar yashaydi.



Qo'shoyoq



Ilon



Toshbaqa



Yumronqoziq

Cho'llarda yer yuzasini qumlar egallaydi.



Yantoq



22-mavzu

SUV HAVZASI

Ko'k kit

Okeanni qanday tasavvur qilasiz?



Seld

Delfin

- Okeanni televizorda ko'rganmisiz?
- Okean suvini nega ichib bo'lmaydi?

Okean – Yer yuzidagi eng katta suv havzasi.

Akula

Okeanlarda ham hayot mavjud. U yerda o'simlik va hayvonlarning ko'p turlarini uchratish mumkin.


Chag'alay

Baliqchi qush

Okean suvlari shamol ta'sirida  
to'lqinlar hosil qiladi.

Dengiz  
toshbaqasi

### Okeanga xos o'simlik va hayvonlarni ko'rsating.



Losos

Okean suvi sho'r va  
ichishga yaroqsizdir.

Suvo't

Okeanlarda kit, delfin, akula  
va har xil baliqlar yashaydi.





7-BOB

**YER VA KOINOT**

23-mavzu

## OSMONDA NIMALARNI KUZATISH MUMKIN?



Osmonni kuzating.  
Nimalarni ko'ryapsiz?



Osmonda kunning turli vaqtida har  
xil manzarani kuzatishimiz mumkin.



- Kunduzi nega yulduzlar ko'rinxmaydi?
- Tunda osmonda yana nimalar ko'zga tashlanadi?



Kunduzi osmonda Quyoshni,  
bulutlar va uchib yurgan qush-  
larni kuzatishimiz mumkin.



Bulutli kunda qushlar pastlab uchadi.  
Bu havo aynishini, yomg'ir yog'ishini  
bildiradi. Havo ochiq bo'lganda esa  
qushlar baland parvoz qiladi.

Tunda yulduzlar va Oy ko'rindi. Yulduzlar  
Yerdan olis bo'lgani sababli kichik ko'rindi.

Oy Yerdan ancha kichik. U yulduzlarga  
nisbatan yaqinroq.




Kunduzi Quyoshni, tunda esa Oy va  
yulduzlarni kuzatishimiz mumkin.



## AMALIY MASHG'ULOT

24-mavzu

QUYOSH, YER VA OYNI TASVIRLASH



## Bizga kerak



Bo'yoqlar



Mo'yqalam

## Bajarish tartibi



1. Quyosh, Oy va Yerni o'zingiz tasavvur qilgan rangga bo'yang.
2. Quyosh va Oydan qaysi biri Yerga yaqinroq?
3. Ularni kattaligiga ko'ra ketma-ket joylashtiring.



## 25-mavzu

## KUN VA TUN

Quyosh chiqishi va botishini kuzatganmisiz?

- Qaysi o'simlik yoki hayvon kun va tun almashinishidan darak beradi?
- Siz kunduzi va tunda nimalar bilan mashg'ul bo'lasiz?



Quyosh botishidan chiqishigacha bo'lgan vaqt **tun** deyiladi.

Quyoshning chiqishi va botishi kun va tunning almashinishini bildiradi.

## Jadval asosida matn tuzing.

Hafta kunlari	Quyoshning chiqish vaqtি	Quyoshning botish vaqtি
Dushanba	6:50	17:50
Seshanba	6:48	17:51
Chorshanba	6:47	17:52
Payshanba	6:45	17:54
Juma	6:44	17:56
Shanba	6:43	17:58
Yakshanba	6:40	18:00



Quyosh chiqishidan botishigacha bo'lgan  
vaqtни **kun** deb ataymiz.



8-БОВ

**ISSIQLIK, YORUG'LIK  
VA TOVUSH**



**STEM** Science & Technology

**26-mavzu ISSIQLIK NIMA?**

Kaftlaringizni bir-biriga ishqalang.  
Nimani his qildingiz?



Quyosh – issiqlik manbai.  
Quyosh bizga issiqlik va yorug'lik beradi.

Pastdagi rasmda nimalarni ko'ryapsiz?



O'tin yonganda qanday jarayonni  
kuzatish mumkin?



Qanday issiqlik manbalarini bilasiz?



Uyingizda qanday isitish vositalaridan foydalanasiz?



### Bizga kerak



Stakan



Issiq suv



Yog'och  
va metall  
qoshiq

### Bajarish tartibi



1. Stakanga issiq suv quying.
2. Yog'och qoshiqni issiq suvgaga soling.
3. Metall qoshiqni issiq suvgaga soling.
4. Qoshiqlarni suvdan chiqaring.

**Xavfsizlik qoidalariga rioya qiling.**

### Qaysi qoshiq issiqroq?



Metall buyumlar issiqlikni yaxshi o'tkazadi.

Yog'och buyumlar issiqlikni yaxshi o'tkazmaydi.

**STEM** Science & Technology**27-mavzu YORUG'LIK NIMA?**

Ko'zlariningizni yuming, so'ng oching.  
Nimani sezdingiz?



Yorug'lik sababli atrofimizdagи barcha narsalarni ko'ra olamiz.  
Ko'zlarimizni yumganda esa faqat qorong'ilikni his qilamiz.

Yorug'likning atrof-muhitga ta'sirini kuzatamiz.



Yorug'lik insonlar, hayvonlar va o'simliklarning yashashi va rivojlanishi uchun zarurdir!

Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?



Quyosh botgach, ko'cha chiroqlari yoqiladi.

## Tabiiy va sun'iy yorug'lik manbalarini ayting.



### Bizga kerak



Cho'ntak fonari



Oq qog'oz



Karton qog'oz



Shaffof plyonka

### Bajarish tartibi



1. Fonarni yoqib, yorug'likni karton qog'ozga yo'naltiramiz va nurning o'tishini kuzatamiz.
2. Fonarni yoqib, yorug'likni oq qog'ozga yo'naltiramiz va nurning o'tishini kuzatamiz.
3. Fonarni yoqib, yorug'likni shaffof plyonkaga yo'naltiramiz va nuring o'tishini kuzatamiz.

Yorug'lik shaffof jismlardan yaxshi o'tadi. Sinf xonalari va xonadonlarning deraza oynasiga shaffof jismlar (shisha oyna) o'rnatiladi. Shu sababli xonalar yorug' bo'ladi.



**STEM** Science & Technology

**AMALIY MASHG'ULOT**

**28-mavzu**

**ISSIQLIK VA YORUG'LIK  
MANBALARINI FARQLASH**

**Bizga kerak**



Stol chirog'i



Termometrlar



Oq va qora mato

**Bajarish tartibi**



- 1** Stol chirog'ini stol ustiga qo'ying va yoqing.
- 2** Oq va qora matolarni buklab, ularning orasiga termometrni joylang.
- 3** 5-6 minutdan so'ng matolarni chiroq tagidan oling.
- 4** Matolar orasidagi termometrlar ko'rsatkichini yozib oling.



Mato isiganini sezdingizmi?  
Termometrlar ko'rsatkichida farq bormi?



Yorug'lik ta'sirida oq matoga nisbatan qora mato ko'proq qiziydi.

## Siz kundalik hayotda qanday issiqlik va yorug'lik manbalaridan foydalanasiz?




Yorug'lik manbalari o'zidan yorug'lik va issiqlik chiqaradi.



29-mavzu

**TOVUSH**

- Tovushlarni qaysi sezgi organi orqali eshitamiz?
- Siz qanday tovushlarni bilasiz? 




Tovushlarni quloqlarimiz yordamida eshitamiz.

Bolalar qanday tovushlarni tinglashyapti? 



- Bu tovushlar bolalar uchun yoqimlimi?
- Siz buni qanday aniqladingiz? 

## Tovush manbalari



Yana qanday tovush manbalarini bilasiz?



### Atrofimizda qanday tovushlar bor?

Ko'zingizni yuming, qo'llaringiz bilan qulqlaringizni yoping.

Tasavvur qiling, siz:

- hayvonot bog'ida;
- tog'da;
- suv bo'yida bo'lsangiz, qanday tovushlarni eshitasiz?



Tovushlar yoqimli, yoqimsiz,  
musiqiy va shovqinli bo'ladi.



## AMALIY MASHG'ULOT

### 30-mavzu TOVUSHLARNI HOSIL QILISH



#### Bizga kerak



Chinni  
idish



Shisha  
idish



Plastmassa  
idish



Metall  
qoshiq

#### Bajarish tartibi

- 1** Chinni idishga metall qoshiqni bir necha marta uring va undan chiqayotgan tovushni tinglang.
- 2** Shisha idishga metall qoshiqni bir necha marta uring va undan chiqayotgan tovushni tinglang.
- 3** Plastmassa idishga metall qoshiqni bir necha marta uring va undan chiqayotgan tovushni tinglang.

Ko'zingizni yuming. Idishlardan chiqayotgan tovushlarni farqlang.



Qaysi idishdan chiqayotgan tovush sizga yoqdi?





Jismlar bir-biriga urilganda  
tovush chiqaradi.



### Musiqiy va shovqinli tovush manbalarini aniqlang.





**9-БОВ  
HARAKAT**



31-mavzu

## HARAKAT NIMA?

Qanday harakatlarni ko'ryapsiz?



- Atrofimizda nimalar harakatlanyapti?
- Nimalar harakatsiz holatda?





Arg'imchoqda uchganda daraxtlar, gullar, uylar xuddi harakatlanganday tuyuladi. Nima uchun?



Harakat oldinga, orqaga, o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga yo'nalgan bo'ladi.



**STEM** Engineering & Technology**AMALIY MASHG'ULOT****32-mavzu****HARAKAT QANDAY YUZAGA KELADI?****Bizga kerak**

Qog'oz



Igná



Qaychi



Qalam



Ip

Qog'oz  
salfetka

Chizg'ich

**Bajarish tartibi**

- 1** Qog'ozdan samolyot yasang.
- 2** Samolyotni havoda uchiring.
- 3** Samolyot harakatini kuzating.
- 4** Qog'oz salfetkadan parashyut yasang.
- 5** Parashyutni yuqoridan pastga harakatlantiring.
- 6** Parashyut harakatini kuzating.



Harakat qanday  
hosil bo'ldi?






Narsa-buyumlarni tortib, itarib, ko'tarib  
va tushirib harakatni hosil qilamiz.



33-mavzu

UMUMLASHTIRUVCHI DARS

Organizmlarning o'xshash va farqli  
belgilarini aytib bering



## Issiqlik manbaini toping



## Mevalardan foydalanib Yer, Quyosh va Oy modelini yarating



O'quv nashri

# Tabiiy fanlar

*Umumiy o'rta ta'lif maktablarining  
1-sinfi uchun darslik*

Rassom *Ixvoldin Salohitdinov*

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*  
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Musahhih *Mohinur Ablahakimova*  
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*  
Sahifalovchi *Alimardon Aqilov*

Bosishga 07.06.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.  
Arial garniturası. Kegli 18 shponli. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 10,23. Nashriyot-hisob tabog'i 11,70.  
Adadi 608 220 nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_.

"O'zbekiston" MCHJ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)